



“SAB’AI SAYYOR” DOSTONINING BADIY XUSUSIYATLARI

Kuvatova Nafisa Zayerjonovna

SamDChTI akademik litseyi

ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Sab'ai Sayyor" dostoni haqida ma'lumotlar berish, ushbu dostonning boshqa Bahrom haqidagi dostonlardan farqini tasvirlab berish.

Kalit so'zlar: Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, "Panj Ganj", Abdurahmon Jomiy, "Haft avrang", "Yeti taxt", shoh Bahrom, Dilorom, yetti raqami, sayyohlar, hikoyatlar.

So'z mulkining sultoni Hazrat Alisher Navoiy o'zining o'tkir qalami bilan turkiy tilga asos solgan buyuk mutafakkir hisoblanadi. Shunday betakror asos yaratdiki, bu dur Ganjaviyning "Panj Ganj" ("Besh xazina") iga, Dehlaviyning "Xamsa"siga va Jomiyning "Haft avrang" ("Yeti taxt") iga turkiy tildagi munosib javob tariqasida o'rin egalladi. Navoiyning "Xamsa" si juda qisqa muddatda 1483-1485-yillarda 2 yil mobaynida yozib tugallangan. Bu asarga yuksak baho bergan zamona hukmdori Husayn Boyqaro Navoiyni o'zining otiga mindirib, o'zi shaharni aylantirib jilovdorlik qilgani haqidagi ma'lumotlar ham mavjud. "Sab'ai sayyor" "Xamsa" tarkibiga kiruvchi to'rtinchi doston hisoblanadi. Doston Bahrom Varahran V haqidagi doston. Doston juda qisqa muddatda 4 oy davomida yozib tugallanganligi haqida shoir asar muqaddimasida yozar ekan, agar davlat ishlari halal bermaganda asarni 4 haftada yozib tugallashini yozadi. Asar 38 bob, 5009 baytdan iborat bo'lib, kirish 11 bobni o'z ichiga oladi. 1-bob- Hamd, 2-bob- Munojot, 3-bob- Na't, 4-bob-Me'roj tunining ta'rifi, 5-bob-So'z ta'rifi, 6-bob-Nizomiy va Dehlaviy madhi, 7-bob-Jomiy madhi, 8-bob-Salaflarning kamchiliklari haqida, 9-bob-Sulton Husayn Boyqaro madhi, 10-bob-Bilqisi Soniy-Xadichabegim madhi, 11-bob-Bahrom tarixi haqida bo'lib, asar voqealari o'n ikkinchi bobdan boshlanadi. Asar



ishqiy-sarguzasht xarakterida yozilgandir. Shoh Bahrom obrazi dastlab Firdavsiyning "Shohnoma" sida uchraydi. Bu asarga ko'ra Bahrom Eron shohi Yazdijurdning o'g'li sanaladi. Uning Ozoda ismli kanizi bor va asar voqealari ularning muhabbati haqida. Undan so'ng bu obrazni Nizomiy, Dehlaviy va Navoiylar o'zining "Xamsa"si uchun obraz qilib oladilar va bu xamsachilik tarixida an'anaga aylanadi. Navoiyning Shoh Bahromga bag'ishlangan "Sab'ai Sayyor" dostoni o'zigacha yaratilgan Bahrom haqidagi asarlardan bir necha jihati bilan farq qilishini va ayrim norozichiliklarini shoir asarning muqaddimasida aytib o'tadi. Shoir o'zigacha bo'lgan davrda Shoh Bahrom haqida yaratilgan asarlarda uning faqat shohlik sifatiga urg'u berilganligini, undagi ishq-muhabbat ikkinchi darajali bo'lib qolganligini aytib o'tgan Ya'ni:

Biri bukim, yo'q anda moyayi dard,

Qildilar ishq so'zidin ani fard

Yana bir kamchilik sifatida yettita qasrda yetti kun hikoya aytib beruvchilarning kanizak ekanliklariga e'tiborni qaratadi:

Yana biri bukim anda ba'zi ish,

Zohiran nomunosabat tushmish:

...Uyqu komin olurg'a mastona

Sho'xlarg'a buyurdi afsona...

"Hikoya aytishga boshqa odam topilmadimi?!" , -deb o'z norozichiliklarini bildiradi. Yana bir e'tirozi sifatida aytadiki:

Bo'yla nodon uchun yozib avsof,

Anga qilgaylar o'zlarin vassof.

O'zining yaratilgan asarida esa Bahrom va Diloromning ishqiga asosiy e'tiborni qaratadi. Yetti kun, yetti xil rangdagi yetti xil qasrda, yetti iqlimdan kelgan sayyohlar hikoyachi sifatida talqin etiladi . Bu asarning badiiyatida shuning uchun ham yetti raqami katta ahamiyat kasb etgan va bu asarning go'zal yaratilishiga o'zining hissasini qo'shgan. Navoiy "Xamsa" sining har bir dostonini o'qir ekanmiz, bundan qariyb besh asr muqaddam yozilgan asar hali-hanuzgacha kishilar



e'tiboridan qolmay kelayotganiga lol qolmaslikning hech iloji yo'q! "Sab'ai Sayyor" dostonini Shoh Bahrom haqida yozilgan boshqa asarlar bilan solishtirib o'qiydigan bo'lsak, uning naqadar ajoyib, betakror asar ekanligiga, badiiyatining naqadar go'zalligiga qoyil qolasan kishi!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Navoiy, "Sab'ai Sayyor", T.:G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi,1991
2. Hasanov S., " Navoiyning yetti tuhfası", T.:G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi,1991
3. O'zbekiston milliy ensiklopediasi , 2000-2005